SHUKUR XOLMIRZAYEVNING "O‘ZBEKLAR"ASARIDA MILLIY RUHIYAT VA IJTIMOIY HOLATLAR TALQINI.

Abdurahmonova Gulorom Iskandar qizi
Termiz davlat universiteti O'zbek adabiyotshunosligi kafedrasi o'qituvchisi
Termiz davlat universiteti 2 - bosqich talabasi
+998912440253
https://doi.org/10.5281/zenodo.7608957

Annotatsiya. Mazkur maqolada men o‘zbek xalqi kitobxonlarining yuksak mehri va olqishiga sazovor bo‘lgan Shukur Xolmirzayevning "O‘zbeklar"nomli asarida tasvirlangan nafaqat jilolarini,balki unda akslangan o‘zbek xalqining davr qiyinchiligiga bardoshi,surat va siyratida tajallilanib turgan hakimlik,millat ichki ruhiy olami munozaralari,ham ijtimoiy ham psixologik talqinlar ishi bilan birga falsafiy jihatdan asar tilining soddaligi,oddiy ,ammo purma’no so‘zlari bilan hikoyalanishi orqali iste’dodli yozuvchining o‘zbekning o‘zligini ko‘rsatish mahorati buyukligini yoritib berishga harakat qildim.
Kalit so'zlar:tajallilanib turgan hakimlik,ruhiy olam munozaralari,psixologik talqinlanish,purma’no so‘zlari,ko‘rsatish mahorati buyukligi...
Annotation.In this article, I will describe not only the brilliance described in Shukur Kholmirzayev's work entitled "The Uzbeks", which has received great love and praise from the readers of the Uzbek people, but also the endurance of the Uzbek people to the hardships of the times, the leadership that is reflected in his pictures and poetry, the discussions of the inner spiritual world of the nation, and social and psychological interpretations. along with his work, philosophically, I tried to highlight the greatness of the talented writer's ability to show the identity of Uzbek through the simplicity of the language of the work, simple, but pure words.
Keywords: The mastery of taunting, discussions of the spiritual world, psychological interpretation, the words of Purmana, the greatness of the skill of presentation...

Shukur Xolmirzayev zamonaviy o‘zbek nasrining zabardast vakillaridan biridir. U adabiyot maydoniga 1950-yillarning oxirida kirib kelgan. Dastlabki asarlaridan boshlab hayotning o‘ziga yaqin va tanish jihatlarini qalamga olgan, tasvirda samimiylikka intilgan, qahramonlar ruhiy olami tahliliga alohida e’tibor bergan.

O‘zbeklar — turk urug‘lari birlashmasi-ulusi (urug‘lar siyosiy birlashmasi), o‘zbek ulusi, O‘zbekiston Respublikasi aholisining asosiy qismini tashkil etadi. O‘zbeklar nafaqat O‘zbekiston, balki O‘rta Osiyodagi eng ko‘p sonli xalqdir. O‘zbekistonda (27 million), Tojikistonda (1,800 mingdan ko‘proq),

Qirg‘izistonda (1 million kishi), Qozog‘istonda (600 minghan kishi), Turkmanistonda (900 mingdan ko‘proq) kishi yashaydi. Bundan tashqari, Afg‘onistonda (3,5 milliondan ko‘proq), Rossiyada (300 ming kishi), Saudiya Arabistonida (550—600 ming kishi), Xitoyda (15 ming kishi, 2010-yil), Turkiya, Olmoniya, AQShda ham o‘zbeklar yashaydi. O‘zbeklar o‘zbek tilida so‘zlashadilar. Dini — sunniy musulmonlar.

Shukur Xolmirzayev aytganidek"Asar o‘zbeklar haqida yana ham aniqrog‘i,o‘zbek millati,uning mentaliteti haqida. Unda o‘zbeklarning soddaligi,mehmondo‘stligi,ochiqko‘ngilligi,bag‘rikengligi,saxovatpeshaligi ko‘rsatib berilgan..."

O‘zbek-shu birgina so‘zda olam-olam ma’no yashirin.U xuddi ona yoki vatan so‘zlari kabi qadrdon,dilga yaqin.Meni doim bir savol qiziqtiradi. Chet elga ketgan o‘zbeklar qalbida qanday hislar tug‘yon urayotgan ekan. Ona yeridan olingan bir siqim tuproq hidi uchun jonlarini fido qila olisharmikin?.Vaholanki,men ularning barchasida ham sog‘inch bor deya olmayman,bunga izlangan sabablar ham yetarlicha chiqadi. Ammo men ushbu maqolada o‘zga o‘zbeklar haqida emas,aksincha chin o‘zbeklar haqida fikr yuritmoqchi man. Bu muqaddas so‘z negadir,ko‘proq sovet davri bilan eslanganda etnik chunchuktiradi.Chunki,aynan shular ko‘rsatgan zalolat izlari hali bitgan emas. Biz mana shu hatto nomini tilga olishni xohlamaydiganimiz bag‘rimizdan haqiqiy o‘zbeklarni yulib ketgan. Men Shukur Xolmirzayev ijodida mana shu qora doqqa oqlik kiritishga uringaniga ko‘p bora guvoh bo‘laman va maqolalarimda ham shuni ochib berishga urinaman.

" O’zbeklar "asari shunday-kichik bir voqea,kichik bir asar.Yozuvchi ham Nazar Eshonqul ta’kidlaganidek,"asariga publitsistik izoh berib o‘tadi"va aynan shu asar qiymatini kuchaytiradi. Biroq shu mo‘jazlikda buyuklik yashirin.Tarixdan ma’lumki, sovet davrida paxta balosi eng katta ish edi. Bu esa ko‘plab yozuvchi,shoirlar asarlarida o‘z aksini topgan. Mahoratli yozuvchi ham qahramoni Ergashvoy tilidan qalbga yetkulik tarzda ifodalab bera olgan.Ergashvoy kursdoshlari bilan paxtada boradi,paxta yo‘q,ammo sovuq,izg‘irin va ochlik bisyor joyga. Vatan uchun deb jonlarini ayamay paxtani ham terishadi,bu bir masala bo‘lsa,ikkinchi masala Botir cho‘ponning o‘zbekligi. Ularning o‘zlari yetishlariga urvoqlari bo‘lmasada,topganlarini mehmonga tutishlaridir. Markur asarda yana bir joy,meni o‘z domiga tortgan joy-Abduqodir kuchuk bolalarini olib tug‘ilgan joyidan boshqa joyga ko‘chirgani,ona it esa bolalarini yana uyiga olib ketishi.Men yuqorida bekorga tug‘ilgan joy haqida so‘z ochmadim.Zero,har bir insonning tug‘ilgan joyi uning vatani,o‘zligidir. Shu

o‘rinda haqli savol tug‘iladi,xo‘sh,biz Botir cho‘ponni,uning xotinini chin o‘zbek desak,unda shu o‘zbeklarning mehrga to‘la tuzini yeb tuzlig‘iga tupirgan Mirzag‘olib,O‘rmon,Saparboy,Azimjon kabilarni kim deb ataymiz? Ularning qilmishlari shu sharafli nomga dog‘ tushirmaydimi?

Savolga shunday javob qo‘ysak,albatta yo‘qchilik insonni har ko‘yga soladi. Hatto,eng tuban ishga ham vijdondan kechib rozi bo‘lishi mumkin.Lekin bu ularni oqlash uchun asos bo‘lmasligi lozim.Negaki,bu yerda haqiqiy o‘zligini,o‘zbekligini saqlay olgan Ergashvoy bor edi.

"Sen kimgadir yaxshilik niyatida bo‘lsangiz,oxiri yomonlik bo‘lib tugasada,sen mukofotlansin,ammo sening niyating yomon bo‘lsa-yu oxiri yaxshilik bo‘lsa-da jazoyingni olasan"degan hikmatni eshitgandim.Xuddi shunday,Ergashvoyning ham niyati yaxshi edi,ya’ni u o‘zi muhtoj oila dasturxoniga kunda qo‘l cho‘zishdan orlandi. Cho‘pon oilasi buni mensimaslikka yoygsn bo‘lsa-da asl zamirida faqat ezgulik mujassam edi.Kursdoshlarining tuban ishlariga ham u qo‘l urmadi.Ularning niyatlari esa bizga ma’lum. Shunday bo‘lishiga qaramay, ular oxirida bundan pushaymon bo‘lishdi. Asl maqsad,asl O‘zbeklik ham aynan mana shundadir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shukur Xolmirzayev.Saylanma.Qissalar.T.2016
2. D.Quronov.Adabiyot nazariyasi asoslari. T.:Navoiy universiteti, 2018,475b.
3. Nazar Eshonqul maqolalari.
4. ziyo.uz.